

## INNOVATSION RIVOJLANISH VA RAQAMLI IQTISODIYOT: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

**Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o'g'li**

Alfraganus University dotsenti, PhD

**Ollayorov Behruzбек Sardor o'g'li**

Alfraganus University Iqtisodiyot yo'nalishi talabasi

### Annotatsiya

Ushbu maqolada innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyotning nazariy asoslari, ularning iqtisodiyotdagi o'rni va o'zaro bog'liqligi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada innovatsion faoliyatning shakllari, raqamli iqtisodiyotning tarkibiy qismlari, sun'iy intellekt, raqamli to'lov tizimlari va AKT texnologiyalarining iqtisodiy jarayonlardagi roli yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyot bo'yicha amalga oshirilayotgan strategiyalar, xususan "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturi va "Innovatsion rivojlanish strategiyasi" asosida erishilgan yutuqlar tahlil etilgan. Xulosa sifatida, raqamli va innovatsion rivojlanishning uyg'unligi zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omili ekani isbotlangan.

**Kalit so'zlar:** Innovatsion rivojlanish, raqamli iqtisodiyot, AKT, sun'iy intellekt, startap, raqamli transformatsiya, ilmiy-texnik taraqqiyot, Raqamli O'zbekiston – 2030, strategik islohotlar, texnologik yangilanish.

### Аннотация

В данной статье рассматриваются теоретические основы инновационного развития и цифровой экономики, а также их роль и взаимосвязь в современной экономике. Проанализированы формы инновационной деятельности, ключевые компоненты цифровой экономики, включая искусственный интеллект, цифровые платежные системы и информационно-коммуникационные технологии (ИКТ). Особое внимание уделено стратегии Узбекистана в данных направлениях, в частности реализации программ «Цифровой Узбекистан – 2030» и «Стратегии инновационного развития». В заключении делается вывод о том, что интеграция инновационного и цифрового развития является важнейшим фактором устойчивого экономического роста.

**Ключевые слова:** инновационное развитие, цифровая экономика, ИКТ, искусственный интеллект, стартап, цифровая трансформация, научно-технический прогресс, Цифровой Узбекистан – 2030, стратегические реформы, технологическое обновление.

### Abstract

This article examines the theoretical foundations of innovation development and the digital economy, as well as their role and interrelation in the modern economic environment. It analyzes the forms of innovation activity and the key components of the digital economy, including artificial intelligence, digital payment systems, and

information and communication technologies (ICT). Special attention is given to the strategies implemented in Uzbekistan, particularly the "Digital Uzbekistan – 2030" program and the "Innovation Development Strategy." The article concludes that the integration of innovation and digital transformation is a crucial factor in achieving sustainable economic growth.

**Keywords:** Innovation development, digital economy, ICT, artificial intelligence, startup, digital transformation, scientific and technological progress, Digital Uzbekistan – 2030, strategic reforms, technological modernization.

## KIRISH

XXI asr iqtisodiyoti innovatsiyalar va raqamlashtirish jarayonlari bilan tubdan oʻzgarib bormoqda. Anʼanaviy ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish tizimlari oʻrnini zamonaviy, texnologik yechimlarga asoslangan model egallamoqda. Innovatsion rivojlanish har bir davlatning raqobatbardoshligini taʼminlovchi omilga, raqamli iqtisodiyot esa global iqtisodiy muhitning ajralmas qismiga aylangan. Ushbu maqolada innovatsion taraqqiyot va raqamli iqtisodiyotning mohiyati, ularning oʻzaro bogʻliqligi va Oʻzbekiston tajribasi misolida tahlil qilinadi.

Innovatsion rivojlanish tushunchasi va uning iqtisodiyotdagi roli. Innovatsion rivojlanish — bu yangi gʻoyalarni yaratish, ularni mahsulot, xizmat yoki texnologiya koʻrinishida joriy etish orqali iqtisodiy oʻsishga erishish jarayonidir. Bu jarayon ilmiy-tadqiqot ishlari, texnologik yangiliklar, ijtimoiy-iqtisodiy muhitga moslashish orqali amalga oshadi. Innovatsiyalar iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, bandlikni rivojlantiradi va raqobatbardoshlikni taʼminlaydi.

Innovatsiyaning asosiy shakllari: Mahsulot innovatsiyasi – yangi yoki yaxshilangan mahsulotlar yaratish. Jarayon innovatsiyasi – ishlab chiqarish yoki xizmat koʻrsatish usullarini takomillashtirish. Tashkiliy innovatsiya – boshqaruv, axborot oqimlari, resurs taqsimoti sohasidagi yangiliklar. Marketing innovatsiyasi – bozorni oʻrganish, narx siyosati yoki mijozlar bilan aloqadagi yangi yondashuvlar. Innovatsiyaning iqtisodiyotdagi oʻrni va ahamiyati – Iqtisodiy oʻsishni jadallashtiradi. Innovatsiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, bu esa yalpi ichki mahsulot (YaIM)ning oʻsishiga olib keladi.

Raqobatbardoshlikni taʼminlaydi masalan Texnologik yangiliklarga asoslangan mahsulot va xizmatlar ichki va tashqi bozorda ustunlik beradi, Ish oʻrinlari yaratadi masalan Innovatsion sohalarda yangi kasblar, yangi talablar va bandlik turlarini yuzaga keltiradi. Ilm-fan va taʼlim bilan bogʻliqligini mustahkamlaydi. Innovatsiyalar ilmiy tadqiqotlarga asoslangan boʻlib, bilimga asoslangan iqtisodiyot shakllanishiga xizmat qiladi. Resurslardan samarali foydalanishni taʼminlaydi. Energiya tejankor texnologiyalar, chiqindisiz ishlab chiqarish kabi yoʻnalishlar ekologik barqarorlikni mustahkamlaydi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Innovatsion faoliyatga ta'sir qiluvchi omillar: Ilmiy-texnik salohiyat, Moliyaviy va soliq rag'batlari, Inson kapitali sifati, Iqtisodiy muhit va qonunchilik bazasi, Xalqaro hamkorlik va texnologiya transferi. Bugungi kunda ko'plab mamlakatlar innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasini ustuvor yo'nalish sifatida belgilagan. Xususan, O'zbekistonda ham "Innovatsion rivojlanish strategiyasi", "Ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirish dasturlari" orqali innovatsion muhitni yaratish va rag'batlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda.[1]

Raqamli iqtisodiyot mohiyati va asosiy tarkibiy qismlari. Raqamli iqtisodiyot (inglizcha: *Digital Economy*) — bu raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi va ularga asoslangan iqtisodiy faoliyatning shakllanishini ifodalaydi. Boshqacha aytganda, raqamli iqtisodiyot – bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), internet, sun'iy intellekt, blokcheyn, "katta ma'lumotlar" (Big Data), bulutli texnologiyalar va boshqa raqamli vositalardan foydalanib amalga oshiriladigan iqtisodiy jarayonlar majmuasidir. Raqamli iqtisodiyot an'anaviy iqtisodiy modeldan farqli ravishda, ma'lumotlar oqimi, onlayn platformalar, avtomatlashtirilgan tizimlar va raqamli mahsulotlar ustida quriladi. U ishlab chiqarishdan tortib to iste'molga qadar bo'lgan barcha bosqichlarda raqamlashtirish imkoniyatlaridan foydalanadi. Raqamli iqtisodiyot — bu raqamli texnologiyalarga asoslangan iqtisodiy faoliyatdir. U quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi: Raqamli platformalar (elektron savdo, onlayn xizmatlar), Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), Sun'iy intellekt, Big Data, IoT (Internet of Things), Raqamli to'lov tizimlari (blokcheyn, elektron pul).

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT). AKT – bu raqamli iqtisodiyotning asosi hisoblanadi. Internet, mobil aloqa, kompyuter tarmoqlari, dasturiy ta'minotlar raqamli muhitni yaratadi. AKT'ning rivojlanganligi davlatlarning raqamli iqtisodiyotga o'tish salohiyatini belgilaydi. [2]

Raqamli platformalar va xizmatlar. Bu komponentga quyidagilar kiradi:

- Elektron savdo tizimlari (masalan: Amazon, Alibaba, Ozon);
- Onlayn xizmatlar (masalan: Google Services, Uber, Airbnb);
- Raqamli marketing va reklama platformalari (masalan: Meta Ads, YouTube Ads).

Raqamli to'lov tizimlari. Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy tranzaksiyalar raqamli vositalar orqali amalga oshiriladi:

- Elektron pul (PayPal, Click, Payme, Apple Pay);
- Kriptoalyutalar (Bitcoin, Ethereum);
- Mobil to'lov tizimlari va blokcheyn texnologiyalari.

Bu komponent moliyaviy xizmatlarga tezkor va xavfsiz kirishni ta'minlaydi. Sun'iy intellekt (AI) va katta ma'lumotlar (Big Data). AI orqali korxonalar avtomatlashtirilgan qarorlar qabul qiladi, robotlashtirilgan xizmatlar taqdim etiladi. Big Data esa mijozlar xatti-harakatlarini tahlil qilish, bozordagi tendensiyalarni aniqlash, marketing strategiyalarini optimallashtirish imkonini beradi. Bulutli

texnologiyalar (Cloud Computing). Ma'lumotlarni saqlash va ulardan foydalanish an'anaviy serverlardan ko'ra ko'proq samarali va arzon usul bo'lib, ularning ishlashi uchun faqat internet bo'lsa yetarli. Bu kichik bizneslar uchun ham raqamli infratuzilmani yo'lga qo'yishda imkoniyat yaratadi. Kiberxavfsizlik tizimlari - Raqamli iqtisodiyotda axborot resurslarini himoya qilish, shaxsiy ma'lumotlar, moliyaviy tranzaksiyalar xavfsizligini ta'minlash juda muhim. Shuning uchun zamonaviy iqtisodiy faoliyatning ajralmas qismi sifatida kiberxavfsizlik tizimlari jadal rivojlanmoqda. Raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati:

- Mehnat unumdorligini oshiradi;
- Kichik va o'rta bizneslar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi;
- Davlat xizmatlarini raqamlashtirish orqali byurokratiyani kamaytiradi;
- Iqtisodiy faoliyatning shaffoqligini ta'minlaydi;
- Yangi kasblar va malakalar shakllanishiga sabab bo'ladi.

Raqamli iqtisodiyot ishlab chiqarish, ta'lim, sog'liqni saqlash, transport, moliya va boshqa ko'plab sohalarda samaradorlikni oshiradi.

Innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyotning o'zaro bog'liqligi. Raqamli texnologiyalar, xususan sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar, katta ma'lumotlar (Big Data) va IoT (Internet of Things) kabi vositalar ilmiy-texnik ishlanmalarni samarali joriy etish va sinovdan o'tkazish imkonini beradi. Masalan, ilgari bir necha oy talab qilgan innovatsion mahsulotni prototiplashtirish jarayoni bugun 3D printerlar va raqamli simulyatsiya orqali bir necha kunda amalga oshirilmoqda.[3] Raqamli iqtisodiyot faqat texnologiyalarga emas, balki doimiy ravishda takomillashib boruvchi innovatsiyalarga asoslanadi. Bu yerda asosiy rolni startaplar, texnoparklar, ilmiy-innovatsion markazlar bajaradi. Ular yangi raqamli mahsulotlar, ilovalar va xizmatlarni ishlab chiqadi va bu orqali bozor raqobatbardoshligini oshiradi. Innovatsion va raqamli iqtisodiyotning samaradorligi bevosita inson kapitalining sifatiga bog'liq. Zamonaviy sharoitda raqamli savodxonlik innovatsiyalarni yaratish va joriy etishning ajralmas qismidir. O'zbekiston sharoitida bu jarayonlar axborot texnologiyalarini o'qitish, raqamli ta'lim platformalarini joriy etish orqali qo'llab-quvvatlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida innovatsion faoliyat va raqamli iqtisodiyot birgalikda rivojlantirilmoqda. Masalan, "Innovatsion rivojlanish vazirligi" va "Raqamli texnologiyalar vazirligi"ning hamkorlikdagi dasturlari bunga yaqqol misoldir. [4]

O'zbekistonda innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyot strategiyasi. O'zbekiston so'nggi yillarda innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyotga asoslangan yangi iqtisodiy modelga bosqichma-bosqich o'tishni boshladi. Bu yo'nalishdagi asosiy maqsad — raqobatbardosh, bilimga asoslangan va texnologik yetakchilikka ega iqtisodiyotni shakllantirishdir. Innovatsion va raqamli transformatsiya jarayonlari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan.

Innovatsion rivojlanish strategiyasi. 5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining . 2018-yil 21-sentyabr PF-5544-sonli “2019 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu hujjat asosida quyidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilangan:

- Ilm-fan va texnologiyalarni iqtisodiyotga integratsiya qilish;
- Innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish;
- Startaplar va texnoparklar faoliyatini rivojlantirish;
- Innovatsion infratuzilmani yaratish (innovatsiya markazlari, laboratoriyalar, inkubatorlar);

- Intellektual mulkni muhofaza qilish tizimini kuchaytirish. [5]

Shuningdek, 2022-yilda Innovatsion rivojlanish vazirligi Fan va innovatsiyalarni rivojlantirish milliy strategiyasini (2022–2030) ishlab chiqdi. Ushbu strategiya doirasida:

- 2025-yilgacha yalpi ichki mahsulotda ilm-fan ulushini 2%ga yetkazish;
- Fan doktoranturasini kengaytirish va yosh olimlar sonini oshirish;
- Ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish;
- Davlat-xususiy sheriklik asosida innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash kabi maqsadlar belgilangan.

Raqamli iqtisodiyot strategiyasi. Raqamli iqtisodiyot yo‘nalishidagi asosiy rasmiy hujjat – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabr PF–6079-son “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni <sup>1</sup> bilan tasdiqlangan.

Ushbu strategiya quyidagi asosiy yo‘nalishlarni qamrab oladi:

- Elektron hukumat (e-gov) tizimini kengaytirish;
- Davlat xizmatlarini to‘liq raqamlashtirish;
- Har bir tuman va shaharda “Raqamli texnologiyalar markazi” tashkil etish;
- Raqamli savodxonlikni oshirish;
- AKT sohasida kadrlar tayyorlash;
- IT-parklar va startap loyihalarini rivojlantirish;
- Kiberxavfsizlikni ta‘minlash. [6]

2023-yil yakuniga kelib quyidagi natijalarga erishildi:

- Davlat xizmatlarining 80% dan ortig‘i elektron shaklga o‘tkazildi;
- My.gov.uz orqali 300+ turdagi xizmatlar ko‘rsatilmoqda;
- 200 dan ortiq mahalliy IT-kompaniyalar eksportga yo‘naltirilgan xizmatlar taqdim etmoqda;

- Yiliga 1000 dan ortiq yoshlar xalqaro IT-sertifikatlarga ega bo‘lmoqda.

O‘zaro integratsiyalashgan yondashuv. O‘zbekistonda innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyot bir-birini to‘ldiruvchi va mustahkamlovchi strategiyalar asosida olib borilmoqda. Innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun raqamli infratuzilma

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabr PF–6079-son “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-5030957>

zarur, raqamli iqtisodiyot esa yangi innovatsion mahsulotlar, xizmatlar va texnologiyalarni talab qiladi.

Masalan:

- “Bir million dasturchi” loyihasi – raqamli savodxonlikni oshirgan holda IT-innovatsiyalarning kengayishiga xizmat qilmoqda.
- Fan va ta’lim sohasining raqamlashtirilishi — innovatsion resurslarga kirishni osonlashtiradi.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

XXI asr global iqtisodiyoti innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar asosida shakllanmoqda. Innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyot bugungi kunda nafaqat iqtisodiy o‘shishning muhim manbai, balki davlatlarning raqobatbardoshligini belgilovchi strategik omilga aylandi. Innovatsiyalar iqtisodiyotga yangi turtki beradi, texnologik yangilanishni ta’minlaydi va inson kapitalidan samarali foydalanishga yo‘l ochadi. Raqamli iqtisodiyot esa bu innovatsiyalarning amaliyotga tez va keng miqyosda tatbiq etilishiga imkon yaratadi. O‘zaro bog‘liq holda rivojlanayotgan innovatsion va raqamli yo‘nalishlar sanoat, ta’lim, sog‘liqni saqlash, moliya va davlat boshqaruvi kabi asosiy sohalarda tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt, Big Data, blokcheyn, raqamli to‘lov tizimlari va elektron hukumat kabi texnologiyalar iqtisodiy faoliyatda shaffoflik, tezkorlik va samaradorlikni oshirmoqda. O‘zbekistonda ham bu yo‘nalishlarda izchil siyosat olib borilmoqda. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” va “Innovatsion rivojlanish strategiyasi” kabi muhim dasturlar orqali mamlakat innovatsion iqtisodiyotga o‘tish yo‘lida mustahkam zamin yaratmoqda. Ilm-fan, texnologiya, AKT va inson kapitaliga yo‘naltirilgan islohotlar natijasida raqamli transformatsiya va innovatsion muhit shakllanmoqda. Xulosa qilib aytganda, innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyot bir-birini to‘ldiruvchi va mustahkamlovchi omillar bo‘lib, ularning uyg‘unligi har bir mamlakat iqtisodiy salohiyatini ochib berishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘zbekiston bu yo‘nalishda salmoqli yutuqlarga erishmoqda va bu strategik yondashuv milliy taraqqiyotning yangi bosqichiga xizmat qilmoqda.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. OECD Science, Technology and Innovation Outlook 2023.
2. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi
3. Karimov, S. A., & Qodirov, B. T. (2022).
4. Rustamov, I. A. (2023). Raqamli iqtisodiyot asoslari.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining . 2018-yil 21-sentyabr PF-5544-sonli “2019 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-3913188>
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-sonli Farmoni. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. 2020-yil 5-oktyabr.



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:** Xakimov Ziyodulla Axmadovich  
**Ingliz tili muharriri:** Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich  
**Rus tili muharriri:** Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li  
**Musahhah:** Karimova Shirin Zoxid qizi  
**Sahifalovchi va dizaynerlar:** Sadikov Shoxrux Shuxratovich  
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, may, 5-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: [info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)  
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)  
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710. ГОСТ 7.56-2002** " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**